



XALQ DEPUTATLARI NUROTA TUMAN KENGASHI

210700, Nurota t., Islom Karimov sh. k 48, tel: (79)523-12-00

2023 - yil 18 - aprel

VII-50-60-5-74-K/23

Nurota tumani hokimligi

Nurota tumani mahalliy byudjetining 2023-yil I-chorak ijrosi to'g'risida

Joriy yilda maxalliy byudjet daromadlarning prognoz rejasi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda qabul qilingan "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-813-son qonuni hamda xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining 2022-yil 31-dekabrda "Navoiy viloyatining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida"gi VI-45-184-5-0-K/22-sonli va xalq deputatlari Nurota tumani Kengashining 2022-yil 31-dekabrda "Nurota tumanining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida"gi VII-45-174-5-74-K/22-sonli qarorlarida belgilangan ko'rsatkichlar doirasida bajarilishi ta'minlandi.

Joriy yilda maxalliy byudjet daromadlarining 1 chorak prognoz rejasi 5 643,4 million so'm belgilangan bo'lib, haqiqatda 6 683,4 million so'mga yoki 118,4 foizga ijro etildi. Byudjetga qo'shimcha 1039,0 million so'm daromad tushirildi.

Tuman mahalliy byudjetining xarajatlar qismi 2023-yil 1 choragida 47280,5 mln.so'm rejalashtirilgan bo'lib, rejaga asosan 44801,4 mln.so'm mablag'lar begilangan tartibda moliyalashtirilishi ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda "2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-813-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 27, 168-moddalariga muvofiq, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman mahalliy byudjetining 2023-yil I-chorak ijrosi yuzasidan tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i S.Haydarovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2023-yilning 1 choragida mahalliy byudjetning daromadlari 6 683,4 million so'mga va xarajatlari 44 801,4 million so'mga ijro etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman soliq inspeksiyasi (O.Jo'raqulov) va tuman iqtisodiyot moliya bo'limi (S.Haydarov)lar tuman mahalliy byudjetining 2023-yil II-chorakdaromadlarining belgilangan reja ko'rsatkichlarini daromad turlari bo'yicha ijrosini hamda mahalliy byudjetga qo'shimcha daromadlar manbasini aniqlab, mahalliy byudjetga tushumini ta'minlasin.

4. Tuman sektor rahbarlari tuman mahalliy byudjetining 2023-yil II-chorak daromadlar rejasi bo'yicha to'liq ijrosini ta'minlashni nazoratga olsinlar.

5. Tuman mahalliy byudjetining qo'shimcha manbalari tuman byudjeti hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilmagan tashkilotlarni joriy saqlab turish xarajatlari uchun yo'naltirilishiga

yo‘l qo‘yilmasligi belgilansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (A.Bo‘riyev), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (S.Haydarov) tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga har chorak yakuni bilan hisobot berib borishi belgilansin.

7. Mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek ushbu mablag‘larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari(A.Bo‘riyev) va xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (F.Ermakov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



A.Fayziyev